



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ» atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Suleymanova Mansura Polatovna,
Nukus innovatsion institute
mansura@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda Tarbiy fanini o'qitishda zamonaviy ta'limi amalga oshirish, dars jarayonida yangi axborot va o'yin texnologiyalaridan samarali va qulay foydalanish haqida so'z yuritilgan. Shu bilan bir qatorda, Tarbiya fani dasturiga qo'yilgan talablar; dastur va darslik asosida boshlang'ich sind o'quvchilariga milliy tarbiya berish, ularni har tomonlama rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika, innovatsion pedagogika, tarbiya, milliy tarbiya, Tarbiya fani, pedagogik texnologiya, o'yin.

Innovatsion pedagogika – bu zamonaviy davrda norasmiy fan sifatida keng tarqalgan, butun pedagogika sohasi mutaxassislarining e'tiboriga tushgan va jadal rivojlanib borayotgan bilimlar tizimi. Uning ta'liddagi o'rnnini tan olgan pedagoglar jamoasi va olimlarning fikrlariga ko'ra, odatiy klassik pedagogik nazariyalar eskirgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu tarzda tarbiyalash mumkin emas. Hozirgi zamonda shakllanib, rivojlanib borayotgan, asosiy vazifasi butun kadrlar tayyorlash tizimi nazariyasini tashkil etish yo'li bilan o'zlashtirishdan iborat bo'lgan bu yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilmoqda. Nazariy amaliyotda muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion pedagogika asos qilib olingan.

Pedagogika – bu bilimlar tizimidir. Ob'ektivlik va qarama-qarshilik uning asosiy belgisi hisoblanadi. Pedagogik tizim ilmiy nazariya sifatida har qanday tizimni tashkil etuvchi tamoyillarni o'z ichiga olgan asosiy bilimlarga asoslanishi, ya'ni bu tizim asosiy bilimlarga tayanishi bilan ajiralib turadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi milliy tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda olib boriladi. Chunki milliy tarbiyaning o'zagi milliylikdir. Milliy ta'lim-tarbiya tizimimiz o'sib kelayotgan yosh avlodda o'zini va o'zga odamlarni hurmat qilish, milliy g'urur, vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bir millatga mansub insonlar uchun umumiyl bo'lgan fazilatlarni o'zida mujassam etgan milliy shaxs namunasining mavjudligi va o'quv dasturi shuni ko'rsatadiki: "milliy o'zlikni" shakllantirishda ijtimoiy tarbiya omillarining, oilaning va ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyos. Zero, milliy tarbiya deganda yosh avlodni o'z xalqiga xos milliy fazilatlarni o'zida mujassam etgan shaxs sifatida shakllantirishni tushunish mumkin. Binobarin, ta'lim – bu jamiyatda muayyan shaxs



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

yoki xalqning komil shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo‘lgan milliy mafkura, milliy g‘urur, milliy ong kabilarni tashkil etuvchi tarbiya jarayonidir [1.43-49].

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik hususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab qo‘yildi:

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilari, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlari o‘quvchilarini, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar farzandlarini hamda o‘qituvchilar uchun “Tarbiya” fanidan darsliklar, multimedia ilovalari va o‘quv-metodik majmular nashr etilishi, shuningdek, ijara asosida darsliklar bilan birlamchi ta’minalash — O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti mablag‘lari hisobidan qoplanilishi;

boshlang‘ich sinf (A2), to‘qqizinchi sinf (A2+), o‘n birinchi sinf (V1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, kompetentsiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlari. Har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviylar, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga olishi lozim;

har bir bosqichda o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;

bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

Dunyo dinlarining ko‘p asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish bilan bir qatorda, hech bir dunyo dinida zo‘ravonlik, terrorizm va ekstremizm g‘oyalari targ‘ib etilmasligini tushuntirish [2].

Shu bilan bir qatorda, hozirgi kunda Tarbiy fanini o‘qitishda zamonaviy ta’limni amalga oshirishning yana bir zarur sharti yangi axborot texnologiyalaridan samarali va qulay foydalanish imkonini beruvchi axborot manbalaridan har bir o‘qituvchi va o‘quvchi erkin foydalanishi uchun sharoit yaratilishi kerak. Vaholanki, sifatli ta’lim berish uchun o‘qituvchi o‘quvchiga kerakli ma’lumotlarni yetkazadigan xizmatdan



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍÑ INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

iborat faoliyatni tashkil qilish kerak. Bu yo‘nalish axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish yo‘nalishi deb ataladi.

Ta’lim shakli sifatida o‘yin juda uzoq davrlardan buyon foydalanilib kelinmoqda. Ushbu metod xalq ta’limi, maktabgacha va umumiy ta’lim muassasalarida keng qo‘llaniladi. O‘yin jarayonini o‘quv jarayoniga o‘tkazish uchun quyidagi vaziyatlarni tanlash mumkin:

a) keng ko‘lamli jarayonning elementi sifatida;

v) dars yoki o‘qish darsining bir qismi sifatida (kirish, tushuntirish, takrorlash bosqichlarining birida);

g) sinfdan tashqari ishlarning texnologik jarayonlari sifatida. “Pedagogik o‘yinlarning texnologik jarayonlari” tushunchasi pedagogik o‘yinlarning ko‘plab uslublarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish samaradorligiga pedagogik jamoa yetakchilarining innovatsiyalarga munosabati, boshqaruv uslubi, rahbar va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik jamoa a’zolari ushbu yangilik haqida kerakli ma’lumotlar bilan to‘liq ta’minlanishi, shu munosabatni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxiddinova Kamolaxon Abrorxonning Qizi (2019). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kognitiv ta’limni shakllantirishning hozirgi holati. Zamonaviy ta’lim (O‘zbekiston, (6 (79)), 43-49.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.07.2020 yildagi 422-son qarori. <https://lex.uz/docs/4885018?ONDATE=08.05.2023%2000>
3. Yusupova A., Qurban niyazov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muammolari. // "Pedagogik ta’lim" jurnalı, 2000, № 3. –18-P.
4. Tolibjonovich, M. T. (2021). Sharq Uyg‘onish davri va uning madaniy merosi: xorijiy tadqiqotchilarining nuqtai nazari. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 211-215.
5. Dumarova, G. (2023). Zamonaviy o‘zbek oilalarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar dinamikasi. Evraziyskiy jurnal predprinimatelstva i pedagogika , 1(1), 50-56.